

TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING O'RNI

Abdunazarova Nargiza

Oriental Universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: A.G. Baymatova

Annotatsiya: Ushbu maqolada an'anaviy ta'lim bilan noan'anaviy usulda, ya'ni didaktik o'yinlar asosida darsni tashkil etishning samaralari natijalari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek didaktik usullardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Didaktika, rolli o'yin, ishchanlik, kanselyariya mahsulotlari, o'lchov asboblari, didaktik tamoyillar.

Kirish

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlar alohida o'rniga ega bo'lib bormoqda. Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq-odob o'rgatish, nutq o'stirish, til o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi.

Asosiy qisim

Didaktik o'yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarini amalga oshirish ko'zda tutiladi. Turli o'quv fanlariga oid didaktik o'yinlar

mavjud bo'lib, ular shu fanlarni sifatli o'rgatish maqsadlariga xizmat qiladi.

Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini berishi bilan alohida o'ringa ega. O'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakli hisoblanadi.(1) Bu esa pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o'yinlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va yanada oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilishiga asos bo'ldi. Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni ta'lim oluvchilarning bilim olish va

o'yin faoliyatiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar; ijodiy o'yinlar; ishbilarmon

o'yinlar; konferensiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin. Didaktik o'yinli

mashg'ulotlarda ta'lim oluvchilar darsda faol ishtirok etadilar. Buning uchun

o'quvchilar zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, bundan tashqari,

ularda guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam berish tushunchalari

shakllangan bo'lishi lozim. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar o'quvchilarni

harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganilayotgan o'quv predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan keraklisini tanlab olishni yordam beradi.(2)

Didaktik o'yin texnologiyalari amalga oshiriladigan ayrim noan'anaviy dars shakllari:

Ishchanlik o'yin darsi – dars mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi.

Rolli o'yin darsi – dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo‘yicha chuqur aniq ma'lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi – tegishli o‘quv fani bo‘yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedia, virtual o‘quv kursi va shu kabilar) asosida o‘tiladigan dars.

O‘yin darsi – dars mavzusiga mos o‘yin orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini tashkil qilish darsi.

Didaktik o‘yinlarni amalda qo‘llash shart-sharoitlari:

Didaktik o‘yinlarni tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinadi. Har bir didaktik o‘yin mashg‘ulotlariga o‘ziga xos xavfsizlik talablari qo‘yiladi. Bu xavfsizlik talablariga to‘liq rioya qilinishi har bir tashkilotchining doimiy e’tiborida bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari har bir didaktik o‘yin uchun sarflanadigan vaqt miqdorini to‘g‘ri belgilash va unga rioya qilishning o‘ziga xos asoslarini bilish va darsning maqsadiga muvofiq qo‘llash talab qilinadi. Didaktik o‘yin turlarini tanlash mezonlari:

- ishtirokchilar tarkibi bo‘yicha – o‘g‘il bolalar, qiz bolalar, o‘smirlar, katta yoshdagilar uchun o‘yinlar;

- ishtirokchilar soni bo‘yicha – yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, raqobatdosh komandalar, sinflararo va ommaviy o‘yinlar;

- o‘yin jarayoni bo‘yicha – fikrlash, o‘ylash, topag‘onlik, harakatlar, musobaqa va boshqalarga yo‘naltirilgan o‘yinlar;

- vaqt me’yori bo‘yicha – dars, mashg‘ulot vaqtining reja bo‘yicha ajratilgan qismi, o‘yin maqsadiga erishguncha, g‘olib yoki g‘oliblar aniqlanguncha davom etadigan va boshqa o‘yinlar.(3)

Har bir didaktik o‘yin jarayonida o‘ziga xos vositalar turlari qo‘llaniladi va mashg‘ulot jarayonida ulardan to‘g‘ri, unumli va xavfsiz foydalanish lozim. Bu vositalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- kanselyariya mahsulotlari-turli o‘lchamlardagi oq va rangli qog‘ozlar, skotch, flomasterlar, ruchka, qalam, chizg‘ichlar, qaychi, elim va boshqalar;

- texnika vositalari-proektor, mikrofon, kompyuter, videokamera, videomagnitofon, televizor va boshqalar;
- o‘quv asboblari-o‘quv laboratoriya va ustaxona jihozlari, o‘lchov asboblari, o‘quv priborlari, moslama, mexanizm, model va boshqalar;
- mahalliy va tabiiy materiallardan tayyorlangan vositalar.

O‘qituvchi - pedagog didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘tkazishga puxta

tayyorgarlik ko‘rishi va uni o‘tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya

qilishi talab etiladi:

- didaktik o‘yinli mashg‘ulotlar dasturda qayd etilgan mavzularning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo‘lishi;
- jamiyatlardagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag‘ishlanib, ular o‘yin davomida hal qilinishi;
- barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-axloq me’yorlariga mos kelishi;
- o‘yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo‘lishi;
- mashg‘ulot davomida didaktik tamoyillarga amal qilinishi va eng kam vaqt va kuch sarflanishiga erishish.

Xulosa

Didaktik o‘yinli ta’lim usuli samaradorligining asosiy mezonlaridan eng asosiysi belgilangan vazifalarni hal etish uchun uni qo‘llashning mosligi va tejamkorligi hamda uni qo‘llashda soddalik va osonlik; nafaqat yaxshi natijalarni,

balki ularga erishishning yuqori ishonchliligini ta’minlay olishi.

Didaktik o‘yinlar tashkilotchilari ular uchun ishlatiladigan har bir material bilan ishlash, ulardan tegishli didaktik vositalarni tayyorlash hamda xavfsizlikni ta’minlash texnologiyalarini puxta bilishlari va rioya qilishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zamonaviy dars. Ilmiy-metodik to'plam. A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI. –T.: 2013- yil.
2. J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Zamonaviy pedpgogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. Toshkent, 2008- yil.
3. "Pedagogika va psixologiya" Yu.G'.Mahmudov, Z.J.Xolmirzaev. Toshkent.
4. Ziyatova Barno Baxodirovna. Innovatsion tafakkurning falsafiy, psixologik va didaktik mohiyati. falsafa va insoniyat: o'tmish, hozirgi zamon, kelajak" ilmiy-nazariy anjuman. (E)ISSN: 2181-1784. 4(26), Nov., 2024.
5. Xujayev, M. I. (2021). ZAKI VALIDIYNING TURKISTON ILMIY SAFARI (1913-1914) GA OID TADQIQOTLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 776-788.
6. KU Kuchkarovich . [Pedagogical value of developing playing chess among primary schoolchildren](#) – Pedagogika
7. Abdullayeva, M. O. Q. (2023). Raqamli resurslar asosida adabiyot darslarini o'qitish usullari. *Academic research in educational sciences*, 4(CSPU Conference 1), 7-11
8. Dildora, I. (2024). Boshlang'ich sinf o 'quvchilarining o 'qish faoliyatini tashkil etishning samarali usullari. *Pedagog Jurnal Ilmiah*.
9. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.
10. Evlen, H., Juraev, D., Ziyamukhamedova, U., Khujaev, M., & Jalilov, F. (2025). PLA/Ti6Al4V composite scaffolds for bone tissue engineering: mechanical and thermal properties via FDM and bioprinting. *Journal of Biomaterials Science, Polymer Edition*, 1-25.